

MADANIYATLARARO MULOQOTGA YO‘NALTIRILGAN DARSLIKLAR

Paziljanova Zulfiya Sabirjanovna
p.f.f.d. (PhD), katta o‘qituvchi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: ushbu maqolada metodik konsepsiya bo‘yicha darsliklarning to‘rtinchi avlodi bo‘lgan madaniyatlararo muloqotga yo‘naltirilgan darsliklar avlodi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo muloqot, til, darsliklar, darslik yaratish, xorijiy til darsi, o‘rganuvchilar mustaqilligi, mavzu va mashqlar, o‘quv rejasi.

Abstract: this article talks about the generation of textbooks focused on intercultural communication, which is the fourth generation of textbooks based on the methodological concept.

Keywords: intercultural communication, language, textbooks, creating a textbook, foreign language lessons, learner independence, topics and exercises, curriculum.

Аннотация: В данной статье речь идёт о поколении учебников, ориентированных на межкультурную коммуникацию, которое является четвертым поколением учебников по методологической концепции.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, язык, учебники, создание учебника, урок иностранного языка, самостоятельность учащихся, темы и упражнения, учебная программа.

Madaniyatlararo muloqotga yo‘naltirilgan darsliklar darsda o‘zi va o‘zgalarni anglashni bosh mavzuga aylantirish va madaniyatlar uchrashuvi uchun imkon berishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Ular madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi. Bu darsliklarda yana o‘qish va yozish ko‘nikmalariga alohida urg‘u beriladi. Mashg‘ulot tili, asosan, o‘rganilayotgan til hisoblanadi, o‘rganuvchilarning o‘quv strategiyalari inobatga olinadi va talabalar mustaqilligi

(Lernerautonomie)ga yoʻnaltirilgan oʻrganish targʻib qilinadi. Xorijiy til darsining barcha sohalarida mamlakatshunoslik markaziy oʻrinda turadi. Shu tarzda xorijiy til darsi madaniyatlararo muloqotni oʻrganish va madaniyatlararo tarbiyani shakllantirishga hissa qoʻshadi [1, 29-203].

Chet til darsining yaqin oʻtmishida yangi paydo boʻlgan darsliklar yaxlit metodik konsepsiyaga kirmasligi sababli [2, 1031], yuqorida taʼkidlangan toʻrt metodik konsepsiya hali ham katta ahamiyatga ega. Biroq fanlararo omillarga koʻra toʻrt xil darslik avlodining bir metodik konsepsiyasi darslik yaratishda asosiy konsepsiya sifatida qoʻllanilishi mumkin.

Nemis tilida gaplashiladigan hududlarda foydalanish uchun yaratiladigan darsliklarning tanqidiy tahlili ularni toʻgʻridan-toʻgʻri boshqa taʼlim kontekstlaridagi guruhda qoʻllash juda murakkab ish ekanligini koʻrsatadi. Chunki har bir mamlakatda oʻrganuvchilar guruhining oʻquv anʼanalari, boshlangʻich bilimlari va kutayotgan natijalari boshqachadir [3, 1222]. Bu hodisa Oʻzbekistonda ham sezilarli ravishda koʻzga tashlanadi. Chunki nemis tilini ikkinchi xorijiy til yoki nomutaxassis yoʻnalishlarda xorijiy til sifatida oʻrganuvchi koʻpchilik oʻzbek talabalari frontal mashgʻulotda reseptiv (tinglash va oʻqish) tarzda til oʻrganadilar va bunda grammatik-tarjima metodi dominant (ustuvor) hisoblanadi. Mashgʻulot tili oʻzbek tili boʻlib, oʻrganuvchilar mustaqilligi (Lernerautonomie) taʼlim amaliyotiga toʻla joriy etilmagan. Nemis tili hududida yozilgan darsliklardagi madaniy talablar va didaktik-metodik konsepsiyalar koʻpincha na talabalarning ehtiyojlariga, na qiziqishlariga mos keladi. Oʻqituvchilar uchun nemis darsliklari boʻyicha oʻqitish sharoitlari optimal emas. Bunga sabab nemis tilini ikkinchi xorijiy til sifatida oʻrganadigan yoki nomutaxassis yoʻnalishda oʻqiydigan talabalar bu darsliklarni oʻrganish jarayonida qiyinchilikka duch keladilar. Ularning aksariyati nemis tilini birinchi marta oʻrganayotganliklari va oʻquv rejasida bu fanga ajratilgan dars soati haftasiga atigi ikki akademik soatni tashkil etishi sababli bu darsliklarda berilgan mavzu va mashqlar ular uchun qiyinchilik tugʻdiradi. Bundan tashqari Germaniyada chop etiladigan darsliklar bir tilda boʻlganligi uchun talabalarga yangi soʻz va iboralarni oʻzbek tilida tushuntirishga toʻgʻri keladi. Yana bir muammo shundaki,

Germaniyadan kirib keladigan darsliklar qimmat va uni sotib olish ham imkonsiz. Buning o'rniga ushbu kitoblarning elektron versiyasi qog'oz variantda ko'paytirilib foydalaniladi. Bu muammoni bartaraf qilish maqsadida o'zbek mualliflari yolg'iz o'zlari yoki nemis zabon mualliflar bilan hamkorlikda mahalliy darsliklar yozishlari yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Tan olish kerakki, hozirgi paytda ham O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida nemis tilini mutaxassislik fani yoki ikkinchi xorijiy til sifatida o'rganuvchi talabalar uchun raqobatbardosh darsliklar etarli emas. Mahalliy darsliklarni yaratish chog'ida boshqa madaniyatlardagi metodlar va o'quv materiallari o'rganuvchilarning lisoniy, madaniy va o'quv tajribalari bilan moslashtirilishi kerakligi haqidagi bilimlarni hisobga olishga harakat qilinadi. Bunda darslik tahlili juda foydali bo'lishi mumkin, chunki u mezonlar jadvalidan foydalangan holda darslikni qayta ishlash va baholash uchun qimmatli tavsiyalar berishi mumkin [4, ...]. Dars berish jarayonidagi omillar o'zgaruvchandir. Darslik muntazam rivojlantirib borilishi va yangi vaziyatlarga moslashishi kerak [5, 400]. Darslikni har yili tuzib bo'lmaydi, har yili o'zgartirib bo'lmaydi. Vaziyatdan kelib chiqib darslik materialini rivojlantirish va sharoitga moslashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Götze Lutz, Fünf Lehrwerkgenerationen, in Kast B., Neuner G. (Hrsg.), Zur Analyse, Begutachtung und Entwicklung von Lehrwerken für den fremdsprachlichen Deutschunterricht (Langenscheidt, München, 1994), 29-30; Huneke Hans-Werner und Steinig Wolfgang. Deutsch als Fremdsprache Ein internationales Handbuch 2.Halbband (Berlin, New York: De Gruyter, 2001), - S. 187-203.
2. Krumm H.-J., Ohms-Duszenko M., Lehrwerkproduktion, Lehrwerkanalyse, Lehrwerkkritik, in: Gerhard Helbig u.a. (Hrsg.), Deutsch als Fremdsprache. Ein internationales Handbuch 2.Halbband (Berlin, New York: De Gruyter, 2001). - S.1031.
3. Krumm H.-J., Lehrwerke im Deutsch als Fremd-und Deutsch als Zweitsprache-Unterricht, in: Hans-Jürgen Krumm, Christian Fandrych, Britta Hufeisen, Claudia Riemer (Hrsg.), Handbuch Deutsch als Fremd-und Zweitsprache.

- Ein internationales Handbuch 2. Halbband (Berlin, New York: De Gruyter, 2010). – S. 1222.
4. Korea Presbyterian Journal of Theology. Kwan Yeong-Sook. Kriterienkatalog-Prototyp zur Lehrwerksanalyse sowie-Auswahl. Vol.50 No.4, 2018.
 5. Neuner/Hans Hunfeld, Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts (Fernstudieneinheit 4, Berlin/München, 1993), 400.
 6. Paziljanova, Z. (2023). МОДЕЛИ КОММУНИКАЦИИ В МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ. *Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 517-519.
 7. Paziljanova, Z. (2023). INTERCULTURAL COMMUNICATION. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 1421–1423.
 8. Paziljanova, Z., & Abdug'ofurova, A. (2023). MADANIYATLARARO MULOQOT TUSHUNCHASI HAQIDA. *Наука и инновация*, 1(10), 58-59.